



AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI

SHDPI Tarix kafedrasi o'qituvchisi

Nurbek Begaliyev

SHDPI tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Majidova Ruxshona Shokir Qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har qaysi davrda dolzarb hisoblangan ayriboshlash ya'ni pul muomilasining Amir Temur davrida qanday ko'rinishga ega bo'lganligi va usha davrda chiqarilgan tanga pullarninig qiymati haqida' turli tarixchilarninig asarlari va izlanishlari orqali so'z boradi.

Kalit so'zlari: tanga, oltin, kumush, mis tangalar, soliqtizimi, karvon, og'irlik Quron-u karim,xalqaro savdo, ayriboshlash , tamg'a tanga bosish.

Annotation: This article talks about how the exchange, i.e. money transaction, which is considered relevant in any period, looked like during the time of Amir Temur and the value of the coins issued in that period through the works and researches of various historians.

Key words: coin, gold, silver, copper coins, tax system, caravan, weight, Koran-u-Karim, international trade, exchange, stamp, minting.

Аннотация: В данной статье рассказывается о том, как выглядел обмен, то есть денежная операция, считающаяся актуальной в любой период, во времена Амира Темура и стоимость монет, выпущенных в тот период, на основе трудов и исследований различных историков.

Ключевые слова: монета, золото, серебро, медные монеты, налоговая система, караван, вес, Коран-у-Карим, международная торговля, обмен, штамп, чеканка.

KIRISH

Amir Temur buyuk davlat arbobi ulkan saltanat asoschisi.Amir Temur davrida iqtisodiy tizimning muhim jihatlaridan biri tangalar zarb etilishi va ayriboshlash jarayonlari bo'lib,bu uning davlat boshqaruvi va savdo-sotiq rivojida muhim ahamiyat kasb etgan .Amir Temur davrida ichki va tashqi savdo faol ravishda rivojlangan .Uning davlati Buyuk ipak yo'lining muhim yo'lida



joylashganligi sababli ,savdo-sotiq asosiy faoliyat turlaridan biri edi.Amir temur va uning sulolasi davrida tangalar zarb etilishi davlat iqtisodiyotining markaziy qismi edi.Tangalar oltin ,kumush, mis ko'inishida Samarqand,SHaxrizabz,Buxoro va boshqa shaharlarda zarb etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Amir Temur shaxsi va saltanati haqida turli davrlarda turli izlanishlar olib borilgan jumladan bugunki maqolani ochib berishda ham ayni Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan qolaversa ,yangi avlod tarixchilarining ham adabiyotidan foydalanamiz: SHarafiddin Ali Yazdiyning,,Zafarnoma'', Tuxtayev.E.,Tangalar tilga kirganda'', Ernazarov.E., Kognev.E. ,,Tangalar o'tmish darakchilari''.

Tadqiqot metodologiyasi: Manbashunoslik,matnshunoslik, tahliliy, taqqoslash.

Tahlil va natijalar: Numizmatika ba'zan tarixning muhim sahifalari bo'lgan o'z zamonasining siyosiy-iqtisodiy tuzumlarini ochib berishda va tarixiy hujjatlarda qayd qilinmay qolgan voqealar, podsholarning hukmronlik qilgan yil- larini va uning nomlarini aniqlashda juda katta rol o'ynaydigan asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ilk o'rta asr davrida sharq musulmon davlatlarida zarb qilingan hamma tangalarga yerli hukmdor o'z nomi bilan birga xalifa nomini ham qo'shib zarb qilgan. Chunki xalifa xudoning yerdagi noibi eng oliy diniy va siyosiy hokimiyat ramzi hisoblangan. Agar tan- galarda xalifaning nomi qayd qilinmagan bo'lsa, demak yerli hokimiyat bilan Amir al mo'minin (musulmonlar Amiri) ning o'rtasida qandaydir siyosiy nizo borligini va yoki unga qaram emas, mustaqil davlat ekanligini ko'rsatadigan asosiy dalil bo'lgan.[1.4b.] XIV asr o'rtalariga kelib Chig'atoylar davlati shu qadar zaiflashib ketdiki, hatto uning hukmdorlari haqiqiy mavqelarini yo'qotib, raqib amirlarning qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanib qoldilar. Mana shunday sharoitda turk-mo'g'ul barlos qabilasining amirlaridan biri Temur taxt tepasiga keldi. U 1370-yili Movarounnahr noibi qilib tayinlanadi. Shu davrdan e'tiboran to 1405-yili vafot etgunga qadar chekka o'lkalarni zabt etish bilan shug'ullandi. U Zakavkaze, Iroq, Eron, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini egallagan ulkan imperiyani barpo etdi. Temur taxt tepasiga keliboq o'z nomidan tanga zarb etgani yo'q. Har qalay uning nomi bilan bog'liq bo'lgan tanga 1372-yil bilan ifodalanadi. Shundan so'ng Temur nomi tushirilgan tangalar uning vafotiga qadar zarb qilingan. Temur oltin, kumush, mis tangalar zarb qildirgan. Ammo oltin tangalar ahyon-ahyonda, juda oz miqdorda zarb qilingan. Pul sistemasi asosan kumush tangaga asoslangan edi. Kumushdan turli qimmatdagi tangalar, chunonchi,



6 grammlı yırıktangalar, nımtanga va tangachalar zarb qilingan. Mis tangalar ham juda ko‘plab chıqarılgan. O‘rta Osiyoda esa Samarqand, Kesh, Ush, Xorazm (Urganch) shaharlarıda tangalar zarb qilingan. Ulug‘bek davrıda pul reforması o‘tkazıldı. 1428-yılı avvalgi yıllarda chıqarılgan mis tangalar savdoda ishlatısh taqıqlanganlıgı, unı yangı tangalarga almashtırıshı mumkınlıgı to‘g‘risıda qaror chıqarıldı. Eski tangalarnı almashtırıshga qulaylık tug‘dırısh uchun Andıjon, Toshkent, Shohruxıya (Oldıngı Benaket shahrı), Buxoro, Samarqand, Qarshı, Termız va Hisorda yangı pullar yagona nusxa bo‘yicha zarb qilingan. Pul almashısh tamom bo‘lgandan so‘ng Buxorodan tashqarı qolgan hamma shaharlardagı tanga zarb qılısh korxonaları yopıldı. XIV asrning ikkıncı yarmıda 1360-1380-yılları taxt uchun 25 xon kurash olib borganda Oltın O‘rda hayotıda olag‘ovur vaqtlar boshlandı. Markazıy kazıy hokımıyatning hokımıyatning zaıflashganlıgıdan qo‘ng‘ırot qabilasıning mahallıy So‘fiylar dinastıyası ustalık bilan foydalandı. Ular taxmınan 1360-yılı Xorazmni mustaqıl idora qıla boshladılar. Hatto o‘z yerlarıga Xorazmning o‘ng qırg‘oqdagı qısmını ham qo‘shıb oldılar. 1372-yılı Temur Xorazmga yurısh qılıb, Yusuf So‘fiynı o‘zıga tobe qıladı. Chunkı Yusuf So‘fiy bır safar Amır Temurning hukmronlıgını tan olsa, bır safar Oltın O‘rda xonı To‘xtamıshnı tan olardı. Shuning uchun ham Temur Xorazmga bır necha bor jangovar yurısh qıldı. 1388-yılı beshıncı marotaba yurısh qılganda u Urganch shahrını yakson qıldı. Temurning vafotıdan so‘ng (1405 y.) Xorazmga yana Oltın Urda xonları hukmronlık qıldı. Lekın Temurning o‘g‘lı Shohrux 1412-yılı Xorazmni qayta qo‘lga kırgızdı. Mo‘g‘ullar istıbdodıdan so‘ng Xorazmda zarb etılgen O‘zbekıston SSR terrıtorıyasıdan topılgen tangalar tangalar bızgacha yetıb kelmagan. Bızningcha, bu yerda tanga zarb qılısh XIII asrning so‘nggı choragıda boshlangan bo‘lsa kerak. Mis, kumush dirhamlar So‘fiylar dinastıyası hukmronlık qılgen vaqtda, ahyon-ahyonda esa Temur hukmdorlıgı davrıda kıchık oltın tangalar chıqarılgan. Xorazmda Chıg‘atoylar dinoriga o‘xshash yırık kumush tangalar bo‘lmagan. Xorazmning jund dirhamları Movarounnahr Chıg‘atoy dirhamlarıdan tabııy farq qılgen. Bırıncıdan, ularning qımmatı turlıcha bo‘lib, u asta-sekı kamayıb borgan. XIII asrning oxırıga kelıb hamma kumush tangalarning og‘ırılıgı 2,3 gramm bo‘lgan bo‘lsa, XIV asrning boshlarıda 1,9 gramm, 1380-yılda 1,5 gramm va XV asrning boshlarıda 1,1 grammga tushıb qıldı. Oltın tangalar og‘ırılıgı 1,10-1,15 gramm va hatto undan ham oz bo‘lgan. XIII asrga oid Xorazmning bırıncı dirhamlarıdao‘sha davrda hokımıyatnı boshqarayotgen hukmdor nomı eslatılmayıdı. Tanganıng bır tomonıda dıniy aqıdalar yoki qur‘- ondan olıngan bırorta kalıma, ikkıncı tomonıda esa tanga chıqarılgan sana, joy zarb qılgen.



Tangalar- dagi yozuv uncha chiroylik bo'lmay, ba'zan xatolarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, harflar tushib qolgan, ayrim harflar bir-biriga qo'shib ketgan. [2.27-28b.] Amir Temur aytadi: «Men o'z saltanatim binosini islom dini asosida barpo etdim, uni to'ra va tuzuk asosida boshqardim va kundalik faoliyatimda nimaki ish qilgan bo'lsam, to'ra va tuzuk asosida ado etdim». «Raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish xazinaning kambag'allanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi, bu o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi». «Agar har yer va elning oqsoqollari fuqaroga jabr-zulm qilsa, yetkazilgan zarar oqsoqoldan undirib berilsin». «Oddiy sipohiyga o'z vazifasini o'rinlatib bajarish sharti bilan oylik maoshi mingan otining bahosiga tenglashtirilsin. Bahodirlarning maoshi ikkitadan to'rttagacha ot bahosida tayin qilinsin. O'nboshilar oyligi oddiy sipohiylarnikidan o'n barobar ortiq bo'lsin. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo'lsin». [3.234 b.]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Amir Temur o'z davrining buyuk sarkardasi o'lgan saltanat asoschisi bo'lgan. Bobokalonimiz umrining ko'p qismini jang-u jadalda o'tkazgan bo'lsada, ammo davlat ishlarini ham, ilm-u marifatni ham tashlab qo'ygani yuq. U o'z zamoning diniy bilimdoni ham bo'lgan. 1372-yildan boshlangan tanga zarb etilish jarayonlari keyinchalik keng tus olganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda Amir Temur bobomiz bizlar uchun doim faxr va iftihar tuyg'usidir.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. TUXTAYEV. I., „Tangalar tilga kirganda”. Toshkent. 1988 yil.
2. ERNAZAROV. T. KOGNEV. E. „Tangalar o'tmish darakchilari”. Toshkent. 1997 yil.
3. „Temur tuzuklari”. Adabiyot va sa'nat nashriyoti. 1991 yil.
4. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.